

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qalandarova Gulqand Mamurovna

O'zbekiston davlat Jahon tillari

universiteti, pedagogika psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Psixologiya kafedrası mustaqil izlanuvchisi

O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti,

Ergashova Shahina Maxsud qizi

2439-guruh/2-kurs talabasi

Annotatsiya: Bo‘lajak pedagoglarning psixologik xususiyatlari doimo dolzarb va keng qamrovli mavzulardan biri hisoblanadi. Chunki har bir kasb egasi o‘z sohasida mukammallikka intilishida nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarga, balki shaxsiy psixologik xususiyatlarga ham tayanadi. Ayniqsa, pedagogik faoliyat – jamiyat taraqqiyoti va kelajagi bilan bog‘liq bo‘lgan eng muhim sohalardan biri bo‘lib, unda ishlaydigan shaxslarning psixologik jihatdan tayyorgarligi katta ahamiyatga ega. Bo‘lajak pedagoglarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish orqali nafaqat ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta‘minlash, balki umuman, ta‘lim sifatini oshirish va zamonaviy jamiyat talablariga mos kadrlar tayyorlash mumkin.

Kalit so‘zlar: psixologik xususiyatlar, bo‘lajak pedagog, motivatsiya, kasbiy tayyorgarlik, kommunikativ kompetensiya, emotsional barqarorlik, o‘zini anglash, pedagogik faoliyat, muomala madaniyati, refleksiya.

Аннотация: Психологические особенности будущих учителей всегда являются актуальной и обширной темой. Ведь каждый специалист в стремлении к совершенству в своей области опирается не только на профессиональные знания и умения, но и на личностные психологические особенности. В частности, педагогическая деятельность является одной из важнейших сфер, связанных с развитием и будущим общества, и психологическая подготовка

работающих в ней людей имеет большое значение. Изучая психологические особенности будущих учителей, можно не только обеспечить их личностное и профессиональное развитие, но и повысить качество образования в целом и подготовить кадры в соответствии с требованиями современного общества.

Ключевые слова: психологические особенности, будущий учитель, мотивация, профессиональная подготовка, коммуникативная компетентность, эмоциональная устойчивость, самосознание, педагогическая деятельность, культура поведения, рефлексия.

Abstract: The psychological characteristics of future teachers are always a relevant and wide-ranging topic. Because each professional relies not only on professional knowledge and skills, but also on personal psychological characteristics in his pursuit of excellence in his field. In particular, pedagogical activity is one of the most important areas related to the development and future of society, and the psychological preparation of individuals working in it is of great importance. By studying the psychological characteristics of future teachers, it is possible not only to ensure their personal and professional development, but also to improve the quality of education in general and train personnel in accordance with the requirements of modern society.

Keywords: psychological characteristics, future teacher, motivation, professional training, communicative competence, emotional stability, self-awareness, pedagogical activity, culture of behavior, reflection.

KIRISH

Bo'lajak pedagoglar – pedagogika sohasida dastlabki bosqichda bo'lgan, kelgusida bolalar va o'smirlar bilan ishlash niyatidagi yoshlar hisoblanadi. Ularning psixologik xususiyatlarini to'g'ri aniqlash, ularni rivojlantirish va to'g'ri yo'naltirish juda muhimdir. Pedagoglik faoliyati o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, inson tabiatiga, undagi empatiya, muloqot qilish layoqati, o'zini tuta bilish, boshqalarni anglay olish, stressga bardoshlilik kabi ko'plab jihatlarni talab etadi. Bo'lajak pedagoglar esa bu sohada endigina qadam qo'yayotgan, o'z salohiyatini ro'yobga

chiqara boshlagan shaxslar sirasiga kiradi. Bo'lajak pedagoglardagi eng asosiy psixologik xususiyatlardan biri – kasbga bo'lgan mehr va motivatsiyadir. Pedagogik sohada faoliyat yuritish uchun birinchi navbatda, bolalarni yaxshi ko'rish, ularning tug'ma va orttirilgan xususiyatlarini qabul qilish, ulardan Ijobiy natija kutish, muvaffaqiyatsizliklarga sabrli bo'lish muhim sanaladi. Kasbiy motivatsiya yuqori bo'lgan bo'lajak pedagoglar o'z kasbini sevish, unga ixlos bilan yondashish, mustahkam irodaga ega bo'lish orqali o'z oldiga maqsadlar qo'yadi va ularga erisha oladi. Kasbga nisbatan sustkashlik, e'tiborsizlik bo'lsa, bu pedagogning kelgusida samarali ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sabab, bo'lajak pedagoglarga kasbiy yo'naltirish bilan birga, ularning motivatsiyasini to'g'ridan-to'g'ri oshiruvchi tadbirlarni tashkil qilish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Psixologik jihatdan rivojlangan bo'lajak pedagoglarda hissiy barqarorlik muhim o'rin tutadi. Hissiyotlarni to'g'ri boshqara olish, o'ziga va boshqaga nisbatan munosabatda adolatni saqlash, jamoaviy muhitda ishlash, ijtimoiy rollarni to'g'ri bajarish ko'nikmalari pedagogikada juda zarur. Bo'lajak pedagogning hissiy dunyosi boy, sabr-toqatli, muvozanatli bo'lsa, u kelgusida o'quvchilari bilan oson muloqot o'rnatadi, sinfdoshlari va hamkasblari bilan ham ahil ishlaydi. Chunki pedagogik faoliyat faqat bilim berishdan iborat bo'lmay, o'quvchining ichki dunyosini anglash, ular bilan individual yondashuv asosida ishlashni ham talab etadi. Muloqot madaniyati – bo'lajak pedagog uchun eng zarur psixologik xususiyatlardan biridir. Sinfdan ko'plab o'quvchilar, ularning ota-onalari va boshqa hamkasblar bilan samarali aloqa o'rnatishda yuqori madaniyat, til boyligi, so'zga boylik, to'g'ri va aniq fikr bildirish hamda tinglash ko'nikmalariga ega bo'lish lozim. Muloqot jarayonida pedagogning ochiqligi, samimiyligi, beg'arazligi, o'z fikrini yetkaza olishi muhim. Shuningdek, pedagog o'z nutqi orqali o'quvchilarni ruhlantira olishi, rag'batlantirishi, ma'naviy jihatdan yuksaltira olishi kerak. Bu mahorat esa bolalikdan yetuk shakllanib boradi va ta'lim jarayonida chuqurlashtiriladi [1].

Shaxslararo munosabatlarni boshqara olish – bo‘lajak pedagoglarda bo‘lishi shart bo‘lgan muhim psixologik xususiyatdir. Odamlar bilan ishlashda tushunmovchilik, kelishmovchilik, noroziliklarga duch kelish tabiiydir. Shunday vaziyatda, pedagog o‘zini nazorat qila olishi, muammo yoki nizoni to‘g‘ri hal qilishi, ijobiy psixologik muhit yaratishga intilishi kerak. Bu xususiyat unda doimiy ravishda o‘z ustida ishlash, o‘z xatolarini tan olish va xulosalar chiqarish orqali rivojlanadi. Bo‘lajak pedagog ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topa olishi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ustida ishlashi, o‘ziga nisbatan tanqidiy yondasha olishi muhim ahamiyatga ega [2].

Stressga qarshilik ko‘rsatish, moslashuvchanlik, bardoshlilik ham pedagogik faoliyatda juda katta o‘rin tutadi. Ta’lim tizimida turli xil vaziyatlar yuzaga keladi, ayrim paytlarda o‘quvchi va ularning ota-onalari, hamkasblar bilan muammolar, tushunmovchiliklar bo‘lishi mumkin. Bo‘lajak pedagoglar stressli vaziyatda mustahkam irodaga ega bo‘lish, bosim ostida to‘g‘ri qaror qabul qilish, shoshilinch xulosalar chiqarishdan saqlanish, muammoni hal qilishda vazminlik ko‘rsatishi kerak. Bardoshlilikni rivojlantirish orqali pedagoglar o‘quvchilarini ruhiy himoya qilish, ularga madad berish, sinfda ijobiy muhit yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tashabbuskorlik va kreativlik har bir bo‘lajak pedagogda bo‘lishi kerak bo‘lgan jihatlardandir. Pedagogning tashabbuskorligi – u har qanday sharoitda faoliyat ko‘rsatish, yangi usullarni joriy etish, ilg‘or tajribani o‘rganib, undan unumli foydalanish, o‘z ishiga zamonaviylik, yangilik olib kirish uchun harakat qilishi demakdir. Kreativlik esa, pedagogning turli masalalarga noodatiy yondashuvi, ta’lim-tarbiya jarayonini qiziqarli va mazmunli tashkil etishi, o‘quvchilarni jalb qila bilishida aniqlanadi. Pedagogik intuitsiya bilan harakat qilish, mazkur kasbda faol ishlashda sezgirlik, ehtiyotkorlik, e’tibor, bilimdonlik, odob-axloq, madaniyatlilik kabi fazilatlar asosiy mezonlardan hisoblanadi. Bo‘lajak pedagoglar o‘zlari tanlagan sohada muvaffaqiyat qozonishlari uchun, psixologik jihatdan o‘z ustida ishlashlari, salbiy hissiyotlarni to‘g‘ri boshqarish, intilish va maqsad sari dadil harakat qilishlari kerak. O‘z-o‘zini anglash va baholash ko‘nikmasi bo‘lajak pedagoglarning psixologik

tayyorgarligidagi muhim yo'nalishdir. Faqat o'zini to'g'ri anglaydigan, o'z harakatlarini tahlil qila oladigan pedagoggina o'quvchisining qalbini topa oladi, undan ijobiy natija kutadi hamda har doim zamon bilan hamnafas bo'lib yashaydi. O'z-o'zini anglash murakkab, uzoq davom etadigan jarayon bo'lsa ham, pedagogning o'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirish, motivatsiyasini mustahkamlash, stressni boshqarish va kasbiy baraka manbai hisoblanadi [4].

Ijtimoiy muhitga moslashish pedagog uchun asosiy xususiyatlardan. Qachonki, pedagog ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlarga, yangiliklarga tez moslasha olsa, jamiyatda hurmatga sazovor, yuksak malakaga ega bo'lgan kadr sifatida e'tirof etiladi. Bunday pedagoglar jamiyatda, o'quv muassasalarida, sinfda doimo yetakchi rolni egallaydi, zamonaviy talablarga javob bera oladi. Pedagogning intellektual salohiyati ham muhim o'rin tutadi. Bilimga bo'lgan intilish, yangiliklarni o'rganishga qiziqish, murakkab holatlarda mazmunli va mantiqiy qarorlar qabul qilish, muammolarni yecha olish, tahlil qilish – bularning barchasi har bir bo'lajak pedagogda bo'lishi muhim. Intellektual salohiyat nafaqat kasbiy faoliyatda, balki o'z hayot tarzi hamda atrof-muhit bilan bo'ladigan aloqada yuqori darajada bo'lishi zarur. Pedagogik etikani saqlash va shaxsiy madaniyatni doimo yuqori darajada bo'lishi uchun pedagog doimiy o'qish, o'rganish, o'z ustida ishlash, yangi pedagogik uslublarni o'zlashtirish, metodikani rivojlantirib borishga harakat qilishi kerak. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olish, ularga individual yondashuvni tanlash, ularning fikri va qarashlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish ham pedagogning muhim psixologik xususiyati hisoblanadi. O'qituvchining hayotiy tajribasi boy, hayotiy nuqtai nazari aniq, dunyoqarashi keng bo'lsa, u bolalarga namuna bo'la oladi [5].

Kasbiy motivatsiya, hissiy barqarorlik, muloqot madaniyati, shaxslararo munosabatlarni boshqara olish, stressga bardoshlilik, tashabbuskorlik, kreativlik, o'z-o'zini anglash va ijtimoiy muhitga moslashish, intellektual salohiyat hamda pedagogik etika – bularning barchasi mukammal pedagog shaxsini shakllantiruvchi asosiy psixologik xususiyatlardir. Ta'lim jarayonida ana shu sifatlarga ega bo'lgan bo'lajak

pedagoglar kelajakda muvaffaqiyatli pedagogga aylanadi, o'zbek jamiyatining ma'naviy, intellektual yuksalishiga hissa qo'shadi [6].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning shaxsiy va psixologik xususiyatlariga e'tibor qaratish nihoyatda muhimdir. Bo'lajak pedagoglarda yuqoridagi sifatlarni shakllantirish, ularni rivojlantirish va doimiy ravishda rag'batlantirib borish pedagogik oliy ta'lim muassasalari, jamiyat, ustozlar zimmasidagi eng muhim vazifalardan biridir. Shaxsiy rivojlangan, kuchli psixologik tayyorgarlikka ega pedagoglar – kelajagi porloq, taraqqiy etgan jamiyat kafolatidir. Ana shunday pedagoglar yetishib chiqishi uchun esa, har bir bo'lajak pedagog o'z oldiga yuksak maqsadlar qo'yib, ustida izchil va samarali ishlashi, o'zining psixologik va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishda tinimsiz harakat qilishi lozim. Bugun ta'lim sohasiga kirib kelayotgan bo'lajak pedagoglar nafaqat o'z bilim va salohiyati, balki insoniylik, mehr-shafqat, samimiylik, sabr-toqat, muloqot madaniyatiga boylik kabi sifatlari bilan ham ajralib turishi zarur. Shu yo'l bilan kelajagimizga ishonch bilan qarash imkoniyati yuzaga chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirova, S. (2019). "Bo'lajak o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligi va uning ahamiyati", *Ilm Sarchashmalari*, 2(4), 125-130.
2. Abdullayeva, S. (2018). "Pedagog faoliyatida shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlari", *Innovatsion Ta'lim*, 6(2), 97-102.
3. Abdullayev, R. (2021). "Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'llari", *Pedagogika va Psixologiya muammolari*, 8(3), 55-60.
4. Baratova, M. (2020). "Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish va psixologik barqarorlik", *O'zbekiston Pedagogik Jurnal*, 4(17), 210-215.
5. Buxorova, G. (2017). "Kasb tanlashning psixologik omillari va o'qituvchilik faoliyatiga yo'naltirish", *Zamonaviy Ta'lim*, 5(2), 32-36.
6. Eshbekova, Z. (2022). "Bo'lajak muallimlarning kasbiy yo'naltiruvchi kompetentligini rivojlantirish", *Pedagogik izlanishlar va innovatsiyalar*, 9(1), 75-83.

7. Israilova, D. (2020). “Pedagog qadriyatlari va psixologik xususiyatlar”, Ta’lim va amaliyot, 3(14), 144-149.
8. Madrahimova, N. (2021). “Bo‘lajak ta’lim muassasalari xodimlarining psixologik muammolari”, Ta’lim Taraqqiyoti, 2(6), 60-66.
9. Sattorova, R. (2018). “O‘qituvchilik kasbiga yo‘llanma: psixologik yondashuv”, Xalq Ta’limi, 7(5), 195-199.